



TARBIYACHI SALOHİYATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING AHAMIYATI

Beginqulova Nafosat Abdunazarovna

Ter.DU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6341541>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17 – fevral 2022

Ma'qullandi: 22 – fevral 2022

Chop etildi: 27 – fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

yosh avlod, tarbiya,
jamiyat, tarbiyachi,
pedagog, pedagogik
mahorat, mahoratni
rivojlantirish, pedagogik
qobiliyat.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lish bugun eng muhim ahamiyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Bu vazifa tarbiyachi pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Mahoratli pedagog jamiyatimizning eng kerakli shaxsidir. Maqolada tarbiyachi pedagoglarning pedagogik mahoratini rivojlantirish yo'llarini ilmiy asoslarda yoritishga harakat qildik.

Har qanday jamiyatning tarixi buyuk ajdodlarga bog'lanib sharxlansa, kelajagi yosh avlodga qanday ta'lim tarbiya berishi bilan asoslanadi. Bunday hayot haqiqati bugun tarbiyachi pedagog hamda bolalar ta'lim tarbiyasiga ma'sul kishilar oldiga davlatning muhim vazifasini yuklaydi. Va bu vazifani bajarishda pedagoglardan o'z kasbining fidoiy egasi bo'lishni talab qiladi.

Xo'sh bugun bu vazifa va ma'suliyat mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan hamda kasbga tayyorlanayotgan bo'lg'usi mutaxassislar hayotida qanday ahamiyat kasb etyapti? Ularning kasbiy mahoratini oshirishda nimalarga e'tibor qaratilishi kerak? Zamon talablariga mos shijoatli ilm sohibi bo'lgan pedagoglarni tayyorlash va ular mehnatidan unumli foydalanishda nimalarga ahamiyat berilishi zarur? Bu

kabi muammoli savollarga yechim izlab ko'ramiz.

Pedagog eng avvalo, nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo'yicha mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, o'z bilimi va malakasini mustaqil tarzda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to'g'ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan barkamol avlodni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydigan jamiyatning eng muhim a'zosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning o'tgan yillardagi va hozirgi vaqtda har bir soha kabi ta'lim tarbiya jumladan maktabgacha ta'limga qaratayotgan e'tibori bugun hech birimizga sir emas. Bu borada ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini



rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosating ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun eng avvalo qulay tashkiliy huquqiy sharoitlar yaratildi

Shuning barobarida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlash qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Muxtasar qilib aytganda bolalarni umuman ta'lim tizimining har bir bo'g'inida shakllanayotgan avlodlarni jamiyatimizga naf keltiradigan avlodlar bo'lib ulg'ayishida bugun pedagoglarning ishtiroki nihoyatda ahamiyatli.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun har bir tarbiyachi kasbiy layoqatga, pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i lozim. Pedagogik mahorat-bu ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatini

shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdir. Pedagog tarbiyachi shaxsni tarbiyalash masalasining ko'p qirrali murakkab jarayonligini his qilib o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashishi nihoyatda muhim hisoblanadi. Professional bilimlar esa pedagogik mahoratning tub asosini tashkil qiladi. Professional-pedagogik bilimlarni o'ziga xosligi, ularni kompleks harakterga ega bo'lishi va har bir tarbiyachida shaxsiy "ohang" kasb etishidir. Professional bilimlar negizida pedagog hatti harkarati va xulqning asosini tashkil etuvchi pedagogik printsiplar va qoidalar vujudga keladi. Bu printsiplar va qoidalarni har bir pedagog o'z tajribasiga tayangan

holda yaratadi. Lekin ularning qonuniyatlarini ilmiy bilim yordamida aniqlaydi. Pedagogik mahoratga yetishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi. Pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

Pedagogik mahorat kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. So'nggi yillarda ilmiy yondashuvlar bu holatga nisbatan quyidagicha xulosa qilishga imkon berdi. Pedagogik mahorat kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan kishi individualligini xarakterlaydi. Hozirgi tadqiqotlarda pedagogik mahoratning o'ziga xosligi quyidagi kategoriyalarda jamlanadi. Bular pedagogik mahorat, novatorlik, faoliyat uslubi, pedagogik texnologiya, mahorat, pedagogik ijod, kasbiy bilimdonlik, innovatsion faoliyat kabilardir. Ta'lim tarbiyaviy ishlar jarayonida eng yuksak darajada baholanishi va har jihatdan tan olinishini istamaydigan pedagog topilmasa kerak. Bunga erishish orzusining ushlab berishini pedagogik mahorat deymiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib so'zimizni xulosalaydigan bo'lsak, demak pedagogik mahorat doimiy jarayonda paydo bo'ladi, shakllanadi va yuzaga chiqadi. Avvalo pedagog o'z o'zini tarbiyalaydi va bu jarayondan muvaffaqiyatli o'tib pedagogik faoliyatga kirishadi. Ta'lim faoliyatini yuritish ekan pedagog ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladigan jamoaning rahbari bo'lib eng avvalo pedagog rahbarga xos bo'lgan adolatparvar, odil va tanlagan sohasining



yetuk bilimdoni bo'lmogi lozimligi buyuk ajdodimiz Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shaxri" asarida asoslangan dalillar bilan keltirilgan. Buyuk davlatning kelajagi, yoshlarga berilayotgan ta'lim

tarbiyaning to'g'ri va aniq tashkil etilishiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib bu jarayonga aloqador har bir shaxs o'z ustida doimiy ishlab mahoratini takomillashtirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent "O'zbekiston" 2017.-B.46;
2. Sodiqova Sh "Maktabgacha pedagogika" Toshkent-2013;
3. Abdurahimova D.A, Mavlonova R.A "Pedagogik mahorat" o'quv qo'llanma Toshkent-2012;
4. Turopova R.B "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda o'yinlarning interfaol usulda o'tkazish" RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA TA'LIM ISTIQBOLLARI 2021.
5. Uralovich T. F. Conducting classes on fine arts based on information and communication technologies International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – C. 3-3.